


Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishi
(2020 - yil yanvar-dekabr)


Dastlabki ma’lumotlar bo’yicha 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 14574,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 100,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,3 %) ni tashkil etdi.



B-Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elekr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 111,4 %, suv elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash - 102,3 % hamda togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 100,0 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishda - 58,4 % ga pasayishi kuzatildi.


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1675,9 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,5 % ini tashkil etdi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da






Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	529,8	31,3	-498,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	32426,8	2408,0	-30018,8
Gaz kondensati, ming t.	1403,4	283,0	-1120,4
Chaqiq tosh, ming t.	116,3	209,9	93,6
Shag'al , ming t.	165,9	142,2	-23,7
Tabiiy qumlar, ming t.	146,7	158,6	11,9

Ishlab chiqaradigan sanoat





2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10097,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da

2018- yil	2019- yil	2020- yil
yanvar-dekabr	yanvar-dekabr	yanvar-dekabr
50,6	43,1	69,3
100,0	100,0	100,0

Metallurgiya sanoati

(2020- yil yanvar-dekabr)





Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 8,0 % ga pasaygan bo'lsa, 2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 52,2 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 62,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 1,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2020 - yil yanvar-dekabr)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,4 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 336,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2020 - yil yanvar-dekabr)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 124,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,4 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 3105,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 76,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(2020 - yil yanvar-dekabr)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 99,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 41,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 125,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(2020 - yil yanvar-dekabr)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2019 - yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 103,3 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,5 % ni, fizik hajm indeksi 12,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2697,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 1270,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(2020 - yil yanvar-dekabr)




2019 - yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 99,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % fizik hajm indeksi 97,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 505,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2020 - yil yanvar-dekabr)

2019 - yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 12,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 23,3 % ga pasaygan.

Shuningdek, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,0 % ni, fizik hajm indeksi 123,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2922,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ma'lumot uchun: 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan investitsiyalar 1,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(2020 - yil yanvar-dekabr)

2019 - yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 35,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 91,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2019-yilning yanvar-noyabr oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 20,2 % (12,0 %), o'rta-quyi texnologiyali - 3,4 % (2,7 %) va quyi texnologiyali - 45,6 % (28,3 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 21,3 % (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,4 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 20,0 % (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,8 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,5 % (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,6 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2020 - yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 5664,4 ming litr aroq (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 294,6 % ga o'sgan), 152,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (110,2 %), 210,0 ming tonna kaliy xlorid (105,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari
tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2019 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Og'irligi 0,94 dan kam bo'lmagan polietilen, ming t.	134,7	132,7	-2,0
Asfaltli aralashmalar, ming t.	102,5	87,6	-14,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	138,8	152,9	14,1
Paxta tolasi, ming t.	47,0	41,0	-6,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	9,3	7,6	-1,7
Kaliy xlorid, ming t.	199,1	210,0	10,9
Plastmassa quvurlar, ming t.	4,5	4,7	0,2
Ip kalava, ming t.	24,2	26,0	1,8

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2720,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (18,7 % ini) tashkil etdi.


2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan

ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,3 % ga o'sgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	12943,7	9658,2	-3285,5
Iссиqlik energiyasi, ming gkal	3363,2	3175,5	-187,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 81,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2019 - yil yanvar-dekabr	2020 - yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	5207,0	2268,6	-2215,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	27625,9	34688,2	7062,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 125,6 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4480,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019 - yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.



















Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,7 % (2019 - yil yanvar-dekabr oylarida 2,2 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,2 % ni, shuningdek Shahrizabz tumani 9,2 % ni, Yakkabog' tumani 8,8 % ni, Koson tumani 7,3 % ni, Shahrizabz shahri 6,8 % ni hamda Chiroqchi tumani 5,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (105,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich

















Mirishkor tumanida (143,8 %), Yakkabog' tumani (124,0 %), Shahrisabz shahrida (119,3 %), Qamashi tumanida (116,9 %) hamda Kasbi tumanida (110,6 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida**

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	4480,3	100,0	105,7		1397,4	31,2	101,1
Qashqadaryo viloyati.				Qarshi sh.			
	306,7	6,8	119,3		118,4	2,6	103,5
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	76,4	1,7	104,0		253,5	5,7	116,9
Dehqonobod				Qamashi			
	194,9	4,4	103,7		327,8	7,3	100,9
Qarshi				Koson			
	233,7	5,2	100,3		151,1	3,4	143,8
Kitob				Mirishkor			
	104,4	2,3	100,7		117,8	2,6	105,0
Muborak				Nishon			
	134,1	3,0	110,6		259,3	5,8	104,5
Kasbi				Chiroqchi			
	411,6	9,2	104,6		392,9	8,8	124,0
Shahrisabz				Yakkabog'			



Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,2 % ni shuningdek Shahrisabz tumani 9,2 %, Yakkabog' tumani 8,8 % va Koson tumanida 7,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
Qashqadaryo viloyati.	1792,1	100,0	104,8	Qarshi sh.	559,0	31,2	105,1
	122,7	6,8	140,1		47,4	2,6	98,3
Shahrisabz sh.				G'uzor			
	30,6	1,7	96,4		101,4	5,7	109,5
Dehqonobod				Qamashi			
	78,0	4,4	95,6		131,1	7,3	105,0
Qarshi				Koson			
	93,5	5,2	99,8		60,4	3,4	141,7
Kitob				Mirishkor			
	41,8	2,3	97,5		47,1	2,6	98,4
Muborak				Nishon			
	53,6	3,0	105,6		103,7	5,8	100,7
Kasbi				Chiroqchi			
	164,7	9,2	96,1		157,1	8,8	108,6
Shahrisabz				Yakkabog'			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,2 % ni, shuningdek, Shahrisabz tumani 9,2 % ni, Yakkabog' tumani 8,7 % ni tashkil etib, o'sish sur'atida esa eng yuqori ko'rsatkich Mirishkor tumanida (145,3 %), Yakkabog' (137,0 %) hamda Kasbi tumanida (114,1 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
2020- yilning yanvar-dekabr oylarida










	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
Qashqadaryo viloyati.	2688,2	100,0	106,3	Qarshi sh.	838,5	31,2	98,6
Shahrisabz sh.	184,0	6,8	108,6	G'uzor	71,1	2,6	107,2
Dehqonobod	45,9	1,7	109,7	Qamashi	152,1	5,7	122,5
Qarshi	117,0	4,4	110,0	Koson	196,7	7,3	98,3
Kitob	140,2	5,2	100,7	Mirishkor	90,7	3,4	145,3
Muborak	62,6	2,3	103,0	Nishon	70,7	2,6	109,9
Kasbi	80,5	3,0	114,1	Chiroqchi	155,6	5,8	107,2
Shahrisabz	247,0	9,2	111,1	Yakkabog'	235,7	8,8	137,0

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**
2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1848,9 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 12,7 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari
2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida

	<i>Mlrd. soʻm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>Oʻsishi % da</i>		<i>Mlrd. soʻm</i>	<i>Ulushi % da</i>	<i>Oʻsishi % da</i>
Qashqadaryo viloyati.	14574,8	100,0	100,5	Qarshi sh.	2941,5	20,2	103,0
	314,1	2,2	101,2	Gʻuzor	2692,7	18,5	108,1
Shahrisabz sh.				Qamashi			
	579,6	4,0	102,7	Qarshi	551,1	3,8	113,9
Dehqonobod				Koson			
	614,2	4,2	80,3	Kitob	754,2	5,2	102,0
Qarshi				Mirishkor			
	386,4	2,7	102,2	Muborak	312,8	2,1	101,1
Kitob				Nishon			
	631,9	4,3	83,0	Kasbi	2995,7	20,6	101,4
Muborak				Chiroqchi			
	392,4	2,7	118,8	Shahrisabz	368,9	2,5	109,3
Kasbi				Yakkabogʻ			
	418,2	2,9	103,5		621,1	4,3	110,0
Shahrisabz							

Qashqadaryo viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon tumani (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 20,6 %) hamda Qarshi shahriga (20,2 %), G'uzor (18,5 %) va Koson (5,2 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Mirishkor tumani (2,1 %) va Shahrisabz shahriga (2,2 %) to'g'ri kelmoqda.

Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishi Qarshi tumani (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 80,3 %), Muborak tumanida esa (83,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini kuzatishimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2019 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 118,8 %), Qamashi (113,9 %), Yakkabog' (110,0 %) hamda Chiroqchi tumanlarida (109,3 %) sezilarli darajada oshdi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (19 465,0 ming so'm), G'uzor (13 103,3 ming so'm), Qarshi shahrida (10 623,0 ming so'm) hamda Muborak tumanlarida (7 229,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4 406,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so'm

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	4 406,8	1 354,6		10 623,0	5 082,7
	Qashqadaryo viloyati			Qarshi sh.	


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 245,4	2 110,9		13 103,3	572,6
	Shahrisabz sh.			G'uzor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	3 908,3	511,1		2 021,8	830,2
	Dehqonobod			Qamashi	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	2 457,9	787,3		2 623,4	1 297,5
	Qarshi			Koson	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 458,2	1 001,0		2 600,0	920,7
	Kitob			Mirishkor	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	7 229,5	1 183,5		19 465,0	753,5
	Muborak			Nishon	
	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 983,2	660,0		888,8	624,8
	Kasbi			Chiroqchi	

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
	1 877,8	1 839,5		2 347,3	1 485,4
Shahrisabz			Yakkabog'		

ViLOYAT bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1354,6 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida - 5082,7 ming so'mni, Shahrisabz shahrida - 2110,9 ming so'mni, Shahrisabz tumanida 1839,5 ming so'mni, Yakkabog' tumanida -1485,4 ming so'mni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 2020 - yilning yanvar-dekabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5058,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,7 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 96,5 %), Shahrisabz sh. (83,2 %), Yakkabog' (80,0 %), Shahrisabz (77,8 %), Mirishkor (76,9 %) hamda Chiroqchi




(74,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nishon (4,5 %), G'uzor (5,0 %) va Dehqonobod (16,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 4065 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 800 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 19,7 % i) Qarshi shahriga, 476 tasi Kitob tumaniga (11,7 %), 357 tasi Yakkabog' tumaniga (8,8 %), 346 tasi Shahrisabz shahri (8,5 %), 328 tasi Chiroqchi (8,0 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.





2020 - yilning yanvar-dekabr oyida viloyatda 887 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 155 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,5 %), Qarshi shahrida, 98 tasi (11,0 %), Kitob tumanida, 82 tasi (9,2 %), Chiroqchi tumanida, 81 tasi (9,1 %), Yakkabog' tumanida tashkil etildi.

Sanoat Statistikasi

Bo'limi

Tel.: (75) 221-32-36